

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 97 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEXANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI

Abdugʻaniyev Uchqun Habibulla oʻgʻli

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlar institutining

“Budjet siyosati va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish loyihasi”

boʻlim boshligʻi, PhD, dotsent

uchqunbek90994@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1333-0554

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlikni ommalashtirish yashirin iqtisodiyot koʻlamini qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional vosita sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqotda mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan soliq bazasining kengayishi, budjet daromadlarining barqaror oʻsishi va fiskal rejalashtirishning aniqligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida moliyaviy savodxonlikning taʼsir mexanizmlari sifatida moliyaviy inklyuziyaning kengayishi, raqamli toʻlovlar ulushining ortishi, “chek madaniyati”ning shakllanishi hamda isteʼmolchilarning moliyaviy huquqlari toʻgʻrisidagi bilimlarning oshishi alohida koʻrib chiqilgan. Shuningdek, soliq savodxonligi va soliq madaniyatini rivojlantirish iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini taʼminlashga, naqdsiz toʻlovlar ulushini oshirishga, xaridlarning rasmiylashtirilish darajasini kuchaytirishga hamda soliqlarni ixtiyoriy toʻlashni ragʻbatlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Moliyaviy savodxonlik, yashirin iqtisodiyot, fiskal barqarorlik, soliq madaniyati, moliyaviy inklyuziya, fiskal chек, budjet daromadlari, monitoring indikatorlari.

Abstract. This article examines the promotion of financial literacy as an important institutional instrument for reducing the scale of the shadow economy. The study analyzes factors that contribute to strengthening the country's financial stability, including the expansion of the tax base, growth of budget revenues, and improvement of fiscal planning accuracy.

Within the framework of the research, the mechanisms through which financial literacy influences economic processes are explored, such as the expansion of financial inclusion, the increasing share of digital payments, the development of a “receipt culture,” and the growth of consumer awareness regarding financial rights. The study also demonstrates that improving tax literacy and tax culture contributes to greater transparency of economic operations, a higher share of cashless payments, an increase in officially recorded transactions, and the encouragement of voluntary tax compliance.

Keywords: financial literacy, shadow economy, fiscal stability, tax culture, financial inclusion, fiscal receipt, budget revenues, monitoring indicators.

Аннотация. В данной статье исследуется популяризация финансовой грамотности как важный институциональный инструмент сокращения масштабов теневой экономики. В исследовании анализируются факторы, способствующие укреплению финансовой устойчивости страны, включая расширение налоговой базы, рост бюджетных доходов и повышение точности фискального планирования.

В рамках исследования рассмотрены механизмы влияния финансовой грамотности, такие как расширение финансовой инклюзии, рост доли цифровых платежей, формирование «культуры чеков», а также повышение уровня знаний потребителей о своих финансовых правах. Кроме того, обосновано, что развитие налоговой грамотности и налоговой культуры способствует повышению прозрачности экономических операций, увеличению доли безналичных платежей, росту уровня официальной регистрации покупок и стимулированию добровольной уплаты налогов.

Ключевые слова: финансовая грамотность, теневая экономика, фискальная устойчивость, налоговая культура, финансовая инклюзия, фискальный чек, бюджетные доходы, мониторинговые индикаторы.



KIRISH

Ma'lumki, yashirin (norasmiy) iqtisodiyot — bu bozor qiymatiga ega bo'lgan, biroq rasmiy statistikada to'liq aks etmagani sababli yalpi ichki mahsulot (YalM) va soliq bazasining shakllanishiga to'liq hissa qo'shmaydigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir. Ushbu hodisa, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng uchrab, iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Bunday sharoitda qayd etilmagan daromadlar va tranzaksiyalar natijasida soliq tushumlarining to'liq shakllanmasligi davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, fiskal rejalashtirish aniqligining pasayishiga hamda ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqot aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali norasmiy iqtisodiy aylanmalarni qisqartirish mexanizmlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Ushbu yondashuv mamlakatimizda budjet-soliq tizimini modernizatsiya qilish hamda davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'unlashadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab xalqaro tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Xususan, C. Delechat va L. Medina tadqiqotlarida norasmiy iqtisodiyotning keng tarqalishi davlat moliyaviy resurslarining yetishmasligi, moliyaviy rivojlanish darajasining pasayishi hamda samarali investitsiyalar hajmining qisqarishi kabi makroiqtisodiy oqibatlar bilan bog'liqligi ta'kidlangan [3]. Mualliflarning fikriga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning fiskal oqibatlari, avvalo, soliq tushumlarining kamayishi bilan namoyon bo'ladi hamda "muvofiqlik—institutlar" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali izohlanadi. Tartibga solish tizimining murakkabligi, davlat institutlariga bo'lgan ishonchning pastligi va ma'muriy xarajatlarning yuqoriligi norasmiy iqtisodiy faoliyatga rag'batni kuchaytirishi mumkin.

F. Schneider (IMF, 2002) hamda Jahon bankining keyingi tadqiqotlarida soliqqa oid omillar, institutsional sifat va soliq intizomi ko'rsatkichlari yashirin iqtisodiyot ko'lamiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [4]. Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish faqat nazorat mexanizmlarini kuchaytirish yoki sanksiyalarni qo'llash bilan cheklanmasdan, iqtisodiy subyektlarning xulq-atvor omillarini ham qamrab olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. OECD talqiniga ko'ra, moliyaviy savodxonlik moliyaviy xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor uyg'unligidan iborat bo'lib, u iqtisodiy subyektlarga oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradi [5].

Shu sababli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish "naqd pul aylanmasi — chek madaniyati — soliq muvofiqligi" zanjiri orqali yashirin iqtisodiyot omillarini yumshatib, fiskal barqarorlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, F. Schneider tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda soliqqa oid omillar, davlat institutlari sifati hamda aholining soliq madaniyati yashirin iqtisodiyot ko'lamiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [7]. Ya'ni yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga nafaqat soliq yukining darajasi yoki nazorat mexanizmlarining samaradorligi, balki iqtisodiy subyektlarning xulq-atvori, moliyaviy qaror qabul qilish madaniyati va institutsional muhitga bo'lgan ishonch darajasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy inklyuziya darajasi past bo'lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi nisbatan yuqori bo'lishi kuzatiladi [8]. Bunday sharoitda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy qayd etish rag'batlarini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, jamiyatda moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi naqd puldan foydalanishning ustunligini kuchaytirib, rasmiy moliyaviy institutlarga nisbatan ishonchning sustlashishiga hamda norasmiy daromadlarni yashirishga moyillikning ortishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Mazkur yondashuvga ko'ra, shaxsiy budjetni samarali boshqarish, rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish va moliyaviy majburiyatlarni anglash darajasining oshishi iqtisodiy subyektlarning norasmiy iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etish ehtimolini kamaytiradi. Xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan esa moliyaviy savodxonlik soliq to'lovchilarning iqtisodiy qarorlariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. OECD hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlarida ham soliq madaniyati va ijtimoiy ishonch darajasi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda muhim omil sifatida e'tirof etilgan [9].

Nazariy jihatdan, moliyaviy savodxonlik yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, moliyaviy inklyuziya orqali iqtisodiy operatsiyalarning rasmiy moliya tizimiga integratsiyasini rag'batlantiradi. Ikkinchidan, iste'molchilar va tadbirkorlarning moliyaviy-huquqiy ongini oshirish orqali rasmiy hisob-kitoblar — fiskal chek, shartnoma va bank to'lovlaridan foydalanishni kengaytiradi. Uchinchidan, soliq savodxonligi va soliq madaniyatini rivojlantirish orqali daromadlarni yashirishga bo'lgan moyillikni kamaytiradi.

Shu jihatdan, zamonaviy fiskal siyosatda moliyaviy savodxonlikni oshirish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda "jazolash mexanizmlari"dan ko'ra iqtisodiy rag'batlar va xulq-atvorni o'zgartirishga asoslangan samarali institutsional instrument sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma'lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, OECD va IMF tadqiqotlari hamda milliy statistik ma'lumotlar asosida moliyaviy savodxonlik, moliyaviy inklyuziya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarni institutsional va xulq-atvor yondashuvlari asosida tahlil qilish orqali moliyaviy savodxonlikning soliq muvofiqligi, raqamli to'lovlar va iqtisodiy operatsiyalar shaffofligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur jarayon moliyaviy savodxonlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'nikmalari ortgani sari norasmiy tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari bosqichma-bosqich qisqarib boradi. Natijada iqtisodiy operatsiyalarning kuzatuvchanligi kuchayadi va soliq bazasining kengayishi uchun muhim institutsional sharoit shakllanadi. Bu holat O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish jarayonida raqamli to'lovlar hamda moliyaviy savodxonlikning o'zaro uyg'unlashgan ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.

Moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional omillardan biri hisoblanadi. Jahon banki talqiniga ko'ra, moliyaviy inklyuziya — bu aholining bank hisobvaraqlari, to'lov xizmatlari, jamg'arma va kredit instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi jarayonidir [7]. Ushbu jarayon iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy moliya tizimiga jalb etish orqali naqd pulga asoslangan norasmiy aylanmalar ulushini qisqartirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda naqd puldan foydalanish darajasi bilan yashirin iqtisodiyot ko'lamini o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi. Xususan, F. Schneider va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda naqd pul ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda norasmiy iqtisodiy faoliyat hajmi ham yuqoriroq bo'lishi empirik jihatdan asoslab berilgan [8]. Aksincha, raqamli to'lovlar ulushining ortishi iqtisodiy operatsiyalarning kuzatuvchanligini (traceability) oshirib, daromadlarni yashirish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Raqamli to'lov tizimlari — bank kartalari, QR-to'lovlar, mobil ilovalar va boshqa elektron hisob-kitob vositalari — nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi, balki soliqqa tortish bazasining kengayishiga ham xizmat qiladi. OECD tadqiqotlarida qayd etilishicha, naqd pulsiz to'lovlar ulushi oshgan sari savdo va xizmatlar sohasida rasmiy realizatsiya hajmi kengayib, soliq tushumlari barqarorlashadi [10].

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida amalga oshirilmoqda. Bank kartalari, mobil ilovalar, QR-to'lovlar hamda onlayn to'lov xizmatlarining joriy etilishi aholi va tadbirkorlik subyektlarini rasmiy moliya tizimiga faolroq jalb etishga xizmat qilmoqda. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasida terminal hamda elektron to'lov infratuzilmasining kengaytirilishi esa naqd pulga asoslangan hisob-kitoblar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirishga imkon bermoqda.

Markaziy bank statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2024 yillar mobaynida elektron to'lovlar hajmi qariyb to'rt barobar oshgan, mobil ilovalardan foydalanuvchilar soni esa 5,2 milliondan 20,8 million nafargacha yetgan. Bu esa raqamli moliyaviy xizmatlarning keng ommalashuvi hamda shaffof tranzaksiyalar ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi [11]. Shu davrda naqd pul ulushi 47 foizdan 22 foizgacha kamaygan bo'lib, bu jarayon iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortib borayotganini ko'rsatadi. Raqamli to'lovlar hajmining ortishi natijasida 2022–2024 yillar oralig'ida naqd pulsiz tranzaksiyalar hajmi 114 trillion so'mdan 346 trillion so'mga yetgani kuzatilgan [13].

Moliyaviy savodxonlik ushbu jarayonda muhim katalizator vazifasini bajaradi. Aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli bo'lmagan sharoitda, hatto rivojlangan infratuzilma mavjud bo'lsa ham, naqd puldan foydalanish ustunligi saqlanib qolishi mumkin. OECD/INFE tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda raqamli to'lovlarga bo'lgan ishonch yuqori bo'lib, moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yuqori bo'ladi [14].

Shuningdek, fintex va raqamli to'lov ekotizimining rivojlanishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Suryono, Budi va Purwandari (2020) tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlilda fintex xizmatlari moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali norasmiy iqtisodiy faoliyat ulushini kamaytirish salohiyatiga ega ekanligi qayd etilgan [15]. Biroq ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun aholining raqamli va moliyaviy savodxonligi yetarli darajada rivojlangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy inklyuziya va raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish moliyaviy savodxonlik bilan uyg'unlashgan holda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning samarali institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon naqd pul aylanmasini qisqartirish, rasmiy moliyaviy oqimlarni kengaytirish hamda



fiskal nazorat uchun zarur bo'lgan axborot bazasini mustahkamlash orqali budjet-soliq tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda moliyaviy savodxonlikning muhim yo'nalishlaridan yana biri iste'molchilarning "chek madaniyati" hamda soliq savodxonligini rivojlantirish orqali ixtiyoriy soliq muvofiqligini kuchaytirish hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy operatsiyalarda fiskal hujjatlarning — chek, shartnoma yoki elektron hisob-fakturalarning — talab qilinishi savdo va xizmatlar sohasida rasmiy realizatsiyani kengaytiruvchi muhim omil sifatida qayd etiladi [10].

"Chek madaniyati" iste'molchilarning moliyaviy-huquqiy ongiga bevosita bog'liq bo'lib, aholining tovar va xizmatlar xaridida fiskal chek talab qilishi sotuvchilarni realizatsiyani rasmiylashtirishga undaydi. Bu jarayon "pastdan yuqoriga" yo'naltirilgan institutsional mexanizm sifatida yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga xizmat qiladi. Jahon banki tadqiqotlarida ham iste'molchilarning huquqiy xabardorligi oshgan sharoitda norasmiy savdo hajmining sezilarli darajada kamayishi qayd etilgan [6] (1-jadval).

1-jadval. "Chek madaniyati" va soliq savodxonligi orqali rasmiylashtirish mexanizmlari¹

Yo'nalish	Amaliy instrument	Natija	Yashirin iqtisodiyotga ta'siri
Fiskal chek	Onlayn NKM, virtual kassalar	Real vaqt realizatsiyasi	Norasmiy savdo qisqarishi
Iste'molchi xabardorligi	Chek talab qilish	Rasmiy realizatsiyaning oshishi	Daromad yashirish holatlarining kamayishi
Soliq savodxonligi	E-kabinet, e-deklaratsiya	Ixtiyoriy muvofiqlik darajasining o'sishi	Soliq bazasi kengayishi
Raqamli nazorat	Tranzaksiya kuzatuvchanligi	Shaffoflik darajasining oshishi	Yashirin operatsiya hajmi kamayishi

Ushbu mexanizm "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni iste'molchilarning xulq-atvori sotuvchilarning iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishiga turtki beradi. O'zbekistonda "chek madaniyati"ni shakllantirish yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga qaratilgan muhim amaliy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarning joriy etilishi savdo hamda xizmat ko'rsatish sohalarida realizatsiyani real vaqt rejimida hisobga olish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, aholining fiskal chek talab qilishga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish maqsadida turli targ'ibot va rag'batlantirish mexanizmlari ham qo'llanilmoqda.

"O'zbekistonning naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish" jarayonida moliyaviy savodxonlik va iste'molchi xulq-atvori ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Naqd pul ulushining kamayishi, raqamli to'lovlar hajmining ortishi hamda POS-terminallar sonining ko'payishi rasmiy realizatsiya hajmini kengaytirishga xizmat qilayotgan muhim omillardan biri sifatida qayd etiladi [11].

Bundan tashqari, aholining naqd pulsiz operatsiyalarga o'tishi, xususan QR-to'lovlar va mobil banking orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar sonining ortishi iste'molchilar orasida fiskal chek talab qilish madaniyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarini daromadlarni rasmiylashtirishga undab, norasmiy savdo va xizmatlar ulushining qisqarishiga yordam bermoqda.

Iste'molchilarning fiskal chek talab qilishi sotuvchilarni realizatsiya va daromadlarni rasmiy tarzda qayd etishga rag'batlantiradi. Natijada moliyaviy savodxonlikning iste'molchi xulq-atvoriga ta'siri orqali "pastdan yuqoriga" yo'naltirilgan legallashtirish mexanizmi shakllanadi. Bu jarayon rasmiy realizatsiya hajmining oshishiga hamda budjetga tushumlarning barqarorlashishiga xizmat qilmoqda.

Soliq savodxonligi va soliq madaniyati ixtiyoriy soliq muvofiqligini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Bunday sharoitda soliqlardan bo'yin tovlash nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham maqbul bo'lmagan xatti-harakat sifatida qabul qilina boshlaydi.

Xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, soliq savodxonligi va "nudge" (rag'batlantiruvchi ta'sir) instrumentlari uyg'unlashganda ixtiyoriy soliq muvofiqligi yanada samarali oshadi. Masalan, soliq to'lovchilarga soddalashtirilgan axborot, vizual tushuntirishlar hamda taqqoslovchi ma'lumotlar (to'langan soliq va uning evaziga ko'rsatilayotgan xizmatlar) taqdim etilishi soliq intizomini mustahkamlovchi muhim omil sifatida baholanadi [16].

¹ Muallif ishlanmasi



Shu nuqtai nazardan, “chek madaniyati” va soliq savodxonligini rivojlantirish moliyaviy savodxonlikning tarkibiy qismi sifatida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samarali institutsional mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv rasmiy realizatsiya hajmini kengaytirish, daromadlarni yashirishga bo‘lgan rag‘batlarni kamaytirish hamda soliq tushumlarining barqarorligini ta‘minlash orqali budjet-soliq tizimini samarali boshqarish imkoniyatlarini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish hamda budjet-soliq tizimi barqarorligini ta‘minlashda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim institutsional va xulq-atvoriy omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyot faqat nazorat va sanksiyalar orqali emas, balki iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qaror qabul qilish madaniyati, rasmiy moliyaviy institutlarga bo‘lgan ishonchi hamda soliq majburiyatlariga ongli munosabati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, moliyaviy savodxonlik yashirin iqtisodiyotning asosida yotgan xulq-atvor omillarini yumshatishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlikning yashirin iqtisodiyotga ta‘siri uchta asosiy mexanizm orqali amalga oshirishini ko‘rsatdi. Birinchidan, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi va raqamli to‘lovlar ulushining kengayishi naqd pul aylanmasini qisqartirib, iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligi hamda kuzatuvchanligini kuchaytiradi. Ikkinchidan, “chek madaniyati” va iste‘molchilarning moliyaviy-huquqiy xabardorligi savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida realizatsiyaning rasmiy qayd etilishini kengaytirib, norasmiy iqtisodiy faoliyatni cheklashga xizmat qiladi. Uchinchi mexanizm sifatida esa soliq savodxonligi va soliq madaniyatining rivojlanishi ixtiyoriy soliq muvofiqligini mustahkamlab, daromadlarni yashirishga bo‘lgan rag‘batlarni kamaytiradi.

Umuman olganda, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tizimli va maqsadli chora-tadbirlar yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, soliq bazasini kengaytirish hamda budjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv iqtisodiy munosabatlarni faqat nazorat choralarga asoslanib emas, balki rag‘batlantirish va ongli iqtisodiy tanlovlarni qo‘llab-quvvatlash orqali rasmiylashtirishni tezlashtiradi. Natijada budjet-soliq tizimida fiskal shaffoflik, hisobdorlik va barqarorlik mustahkamlanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan izchil siyosat davlat moliyasining barqarorligini ta‘minlash, iqtisodiy muhitda ishonchni mustahkamlash hamda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi to‘g‘risida”. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7469803>
2. Deléchat C., Medina L. What Is the Informal Economy? // Finance & Development. – 2020. – Vol. 57. – No. 4. – P. 54–55. – URL: <https://www.imf.org/en/publications/fandd/issues/2020/12/what-is-the-informal-economy-basics>
3. Schneider F. Size and Measurement of the Informal Economy in 110 Countries around the World. – IMF Working Paper WP/02/30. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2002. – URL: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2002/wp02030.pdf>
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). OECD/INFE 2023 International Survey of Adult Financial Literacy. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/12/oecd-infe-2023-international-survey-of-adult-financial-literacy_8ce94e2c/56003a32-en.pdf
5. Baer K., Barra P., Benitez J.C. Closing the Gap: How Tax Administration Performance Shapes Compliance. – IMF Working Paper WP/25/209. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. – URL: <https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2025/english/wp25209.pdf>
6. World Bank. Financial Inclusion Overview. – Washington, DC: World Bank, 2023. – URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion>
7. Schneider F., Buehn A., Montenegro C. Shadow Economies All over the World: New Estimates for 162 Countries from 1999 to 2007. – Policy Research Working Paper 5356. – Washington, DC: World Bank, 2010. – URL: <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/180622/1/1027874333.pdf>
8. OECD. Digitalisation of Financial Services. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: <https://www.oecd.org/finance/digitalisation-financial-services.htm>
9. OECD. Tax Morale and Compliance. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: <https://www.oecd.org/tax/tax-morale-and-compliance.htm>
10. Aliyeva M., Ubaydullayeva D. Elektron to‘lov tizimining iqtisodiy muomalani soddalashtirishdagi ahamiyati // Hayka i texnologiya v sovremennom mire. – 2025. – № 4(33). – C. 14–16. – DOI:10.5281/zenodo.17798559. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/67394>
11. Israilov F. Uzbekistan digital banking & fintech trends 2024 — LinkedIn post // LinkedIn. – 2024. – 01 iyul. – URL: https://www.linkedin.com/posts/farkhodjon-israilov-66b363151_uzbekistan-digitalbanking-fintech-activity-7388014120849027072-T6SN



12. By 2030, Uzbekistan Plans to Double Fintech Investment and Join the Global Fintech Index // UzDaily. – 19 Sep. 2025. – URL: <https://www.uzdaily.uz/en/by-2030-uzbekistan-plans-to-double-fintech-investment-and-join-the-global-fintech-index/>
13. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Global Financial Literacy Survey // OECD. – URL: <https://www.oecd.org/financial/education/global-financial-literacy-survey.htm>
14. Suryono R.R., Budi I., Purwandari B. Challenges and Trends of Financial Technology (FinTech): A Systematic Literature Review // Information. – 2020. – Vol. 11. – No. 12. – Article 590. – URL: <https://www.mdpi.com/2078-2489/11/12/590>
15. OECD. Behavioural Insights Toolkit for Regulatory Policy. – Paris: OECD Publishing, 2019. – URL: <https://www.oecd.org/gov/regulatory-policy/behavioural-insights-toolkit.htm>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100